

O'ZBEKISTON JAMIYATIDA SOTSIAL TABAQALANISH MUAMMOLARI

Raxmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi har xil turdagi ijtimoiy birliklar va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuidir. Katta, o'rta va kichik guruhlar o'z ichki qonunlari bo'yicha vujudga keladi va rivojlanadi (ba'zan esa parchalanib ketadi va faoliyatini to'xtatadi), biroq bir-biri bilan bog'liq bo'lgan holda jamiyat hayotining u yoki bu jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, jamiyat ushbu guruhlarning barchasidan hayot va faoliyatning hamma uchun majburiy bo'lgan qonuniylik, insoniylik, vatanparvarlik kabi me'yorlariga amal qilishni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *Sotsiologiya, sotsial tabaqalanish, geterogenlik, yuqori tabaqa, o'rta qatlam, quyi qatlam, ijtimoiy tuban qatlam, etnik munosabatlar, millatlararo munosabatlar, turmush darajasi.*

**ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ СТРАТИФИКАЦИИ В
ОБЩЕСТВЕ УЗБЕКИСТАНА**

Рахматуллаева Озода Шахриддиновна

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Факультет социальных наук Социология студентка 2 ступени*

Аннотация: *Социальная структура общества-это совокупность различных типов социальных единиц и отношений между ними. Большие, средние и малые группы возникают и развиваются по своим внутренним законам (иногда распадаются и перестают функционировать), но, будучи взаимосвязанными, оказывают влияние на те или иные стороны жизни общества. С другой стороны, общество требует от всех этих групп соблюдения таких обязательных для всех норм жизни и деятельности, как законность, человечность, патриотизм.*

Ключевые слова: *Социология, социальная стратификация, неоднородность, высший класс, средний класс, низший класс, социальный низ, этнические отношения, межэтнические отношения, уровень жизни.*

PROBLEMS OF SOCIAL STRATIFICATION IN THE SOCIETY OF UZBEKISTAN

Rakhmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Faculty of Social Sciences Sociology 2nd stage student*

Annotation: *The social structure of society is a set of social units of various types and relationships between them. Large, medium and small groups appear and develop according to their internal laws (sometimes they break down and stop working), but are interconnected, which affect certain aspects of the life of society. On the other hand, society requires all of these groups to adhere to all standards of life and activity, such as legitimacy, humanity, patriotism.*

Key words: *Sociology, social stratification, heterogeneity, upper class, middle layer, lower layer, social bottom layer, ethnic relations, interethnic relations, standard of living.*

“Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoyil e’tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirilmoqda.⁸

Prezident Shavkat Mirziyoyev taqdim etgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi.

Jamiyatning stratifikatsiyaviy⁹ tuzilishi haqidagi qarashlar uning sinfiy tuzilishi to‘g‘risidagi g‘oyaga muqobil sifatida paydo bo‘lgan. Chunki sinfiy tuzilishda jamiyatni gorizontal va vertikal xilma-xilligi nuqtai nazaridan tadqiq qilishga o‘rin bo‘lmaydi va unda yanada kengroq ko‘lamdagi belgilarga ko‘ra (ta‘lim, psixologiya, bandlik, turmush sharoitlari, daromadlar, partiyalarga mansublik, malaka va hokazo) ijtimoiy bo‘linishning to‘liqroq manzarasini olish mumkin emas. Jamiyatning stratifikatsiyaviy bo‘linishi tarafdorlari sinfiy farqlar ko‘lamini, xususan, mulkka munosabat bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan farqlarni ham qo‘shgan holda kengaytirishga urinadilar. Shuning uchun ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasi jamiyatni ijtimoiy statusi, mulkiy ahvoli, malakasi, ijtimoiy roli va boshqalari bilan farq qiladigan ijtimoiy qatlamlarga bo‘lishdan iborat.

Yuqori qatlam deganda, eng avvalo, hukmron qatlam tushuniladi. Unga asosiy ishlab chiqarish vositalari va kapital egalari, shuningdek davlat tuzilmalari, firmalari va boshqalarni boshqarishda yetakchi o‘rinlarni egallagan shaxslar mansub bo‘ladi.

O‘rta qatlam – bu yollanma ishchi kuchidan foydalanishi cheklangan holda ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadigan mayda tadbirkorlar yoki uncha katta bo‘lmagan ishlab chiqarish vositalari va mablag‘larining egalari. Bu qatlam yuqori va tayanch qatlamlar o‘rtasidagi oraliq o‘rinni egallaydi, bozor munosabatlari rivojlanishi barobarida ko‘payishga moyil.

Tayanch qatlam – eng katta qatlam, unga ishlab chiqarish sohasi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan soha xodimlari kiradi. Bu qatlam ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lmagan yoki ulardan cheklangan holda foydalana oladigan, ishlab chiqarishning moddiy va moddiy bo‘lmagan turli sohalarida ko‘proq ijrochilik mehnati bilan band bo‘lgan yollanma mehnat kishilarini birlashtiradi.

⁸ Shavkat Mirziyoyev Murojaatnomasidan 2022-yil yanvar

⁹ Stratifikatsiya – qatlam

Quyida qatlam –faoliyatning cheklangan imkoniyatlari bilan ajralib turadigan kishilar guruhlari bo'lib, bozor munosabatlariga o'tishning keskin sharoitlariga og'ir moslashadi. Bular nafaqaxo'rlar, ishsizlar, qochoqlar, mehnat bozorida ehtiyoj bo'lgan kasb-hunari yo'q kishilar va juda kam daromadga ega boshqa ijtimoiy guruhlar.

“Ijtimoiy tuban qatlam”¹⁰ – o'g'rilar, banditlar, buzuqilar, uyi egalari, aroqxo'rlar, giyohvandlar, muayyan yashash joyiga ega bo'lmaganlar va boshqalar, ya'ni ijtimoiy mavqei va daromad topishi ko'proq noqonuniy xususiyatga ega bo'lgan kishilar.

Boshqa sotsiologlar ijtimoiy stratifikatsiyaning odatda uchta tarkibiy qismni (kasbning obro'si, ma'lumot darajasi, daromad hajmi) o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy mavqe tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv mezonlari orqali ish ko'radilar.

Uchinchilari esa yettita darajali vertikal stratifikatsiyani qo'llab, jamiyatni faqat ijtimoiy-iqtisodiy mavqe jihatidan tabaqalarga bo'ladilar:

1. professionallar, ma'murlar oliy sinfi;
2. o'rta darajadagi texnik mutaxassislar;
3. tijoratchilar sinfi;
4. mayda burjuaziya;
5. rahbarlik vazifalarini bajaruvchi texniklar va ishchilar;
6. malakali ishchilar;
7. malakasiz ishchilar.

Shunday qilib, biz hozirgi jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini tahlil qilishga nisbatan ikkita asosiy yondashuvni ko'rib chiqdik. Ularning har biri bir xil darajada mavjud bo'lish (yashash) huquqiga ega bo'lsa kerak. Eng muhimi, ulardan birortasini absolyutlashtirmaslik kerak, ularga kompleks tarzda, bir-biri bilan bog'liqlikda yondashish, ijtimoiy tabaqalanishning eng muhim obyektiv mezonlarini topish hamda ushbu jarayonni tahlil qilishda ularning turli uslublarni bir-biriga yaqinlashtirish lozim. Har qanday jamiyat murakkab ichki tuzilishga ega. Buning sababi turli odat, an'ana, e'tiqod, qiziqish, manfaatlariga ko'ra yashaydigan va faoliyat yuritadigan kishilarning jamiyatda turli guruhlar tashkil qilishidir. Bundan tashqari kishilarning o'ziga xos pozitsiyalari va statuslari (maqomlari) turli ijtimoiy strukturalarda yanada kichikroq guruhlarga bo'linish xususiyatiga ega. Masalan, ana shunday guruhlarga bo'linish milliy belgiga, mulkiy belgiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Demak, jamiyat tarkibiy jihatdan bir xil bo'lmagan hodisadan iborat. Jamiyatning har bir a'zosi birdaniga bir necha guruhlarga kirishi va bir-biriga bog'langan bir necha ijtimoiy makonda bo'lishi mumkin. Jamiyatdagi ana shu xilma-xillikni geterogenlik va tengsizlik tushunchalari orqali tushuntirib berish mumkin.

Geterogenlik¹¹ jamiyatdagi rang-baranglik, turlichalik, xilma-xillik darajalarining ko'rsatgichlari yig'indisini ifodalaydi. Bu ana shu ko'rsatgichlarga ko'ra bir guruhda muayyan sotsial pozitsiyani egallagan biror kishi boshqa guruhda muayyan pozitsiyani

¹⁰ Ba'zi o'rinlarda ijtimoiy nafaol qatlam sifatida ham qo'llaniladi

¹¹ S.Mamashokirov, A.Hukumov, M.Lafasov va boshqalar. Shaxs va jamiyat. Nazariy masalalar amaliy mashg'ulotlar.-T.: “O'qituvchi” 2005.

egallagan boshqa kishidan yuqori yoki pastda turganligini aniqlab bo'lmashini anglatadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, geterogenlik kishilarning martabali, darajalari haqida emas, balki individlar pozitsiyalarining farqlari haqidagina xabar beradi, demakdir. Geterogenlik insoniyat jamiyatining gorizontali bo'linishidagi nominal ko'rsatgichlarni ifodalaydi. Odamning jinsi, millati, diniy e'tiqodi nominal ko'rsatgichlarga misol bo'lishi mumkin. Shu ma'noda biror bir kishini uning jinsi yoki diniga ko'ra boshqa kishidan ustun turadi, deyish mumkin emas.

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, aynan mulkdorlar tabaqasiga mansub odamlar tufayliga jamiyatda barqarorlik, farovonlik, taraqqiyot asoslari qaror topadi. Misol uchun har qanday iqtisodiy rivojlangan mamlakatni olib ko'raylik. U yerda hal qiluvchi kuchana shu mulkdorlar sinfi hisoblanadi. Qayerda aholi tarkibida haqiqiy mulk egasi bo'lgan odamlar hissasi, shu jumladan o'rtacha mulk egalari hissasi, deyarli katta bo'lsa, o'sha yerda iqtisodiyot barqaror rivojlanadi. Chunki mulk egasi qo'lidagi mulkka xiyonat qilmaydi, bu mulkning katta-kichikligidan qat'iy nazar uni avaylaydi, uni o'z moddiy farovonligining manbai deb biladi.

O'rta mulkdorlar sinfi asosan kichik va o'rta xususiy korxonalar egalaridan tashkil topadi. Ularning yaxshi maosh oladigan mutaxassislari, o'rta bo'g'in boshqaruvchilari bo'ladi. Har ikki soha vakillari ham o'z kasbidan daromad topadi. O'rtahollar tabaqasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni bir necha sabablar bilan izohlanadi. Ularning ko'pchilik qismi yelib-yugurib, katta qiyinchiliklar bilan moddiy farovonlikka erishgan, o'ziga to'q kishilar. Ular farzandlarini ma'rifatli qilishdan, buning uchun tinchlik-xotirjamlik saqlanishidan o'ta manfaatdor. O'rta mulkdor tabaqaga ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiruvchi kuch sifatida qaralishining birinchi sababi shu. O'rta mulkdorlar har xil ur-surlarga qarshi bo'lib, qonunni hamma narsadan ustun qo'yishadi. O'rta tabaqa, birinchidan, mulkdor bo'lsa, ikkinchidan, mehnat bilan band. Ularning yo'qotadigan narsasi bor. Siyqasi chiqqan shiorlar bilan ularni yo'ldan urib bo'lmaydi.

Tarixiy taraqqiyot xususiyatlari yoki boshqa sabablar tufayli ko'pgina mamlakatlarda hududida bitta emas, bir nechta millat yoki etnik guruhga oid kishilarning istiqomat qilayotgani davrimizning haqiqatlaridan biridir. Uni inkor etib yoki unga qarshi chiqib bo'lmaydi. Shunday ekan turli millat va etnik guruhlar istiqomat qiladigan mamlakatlarda nisbatan kam sonli ana shunday guruhlarining madaniy, lingvistik va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha huquqlarini himoya qilish, ularning barchasi har tomonlama taraqqiy etishlari, hamjihat yashashlarini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqishlari muhim ahamiyatga ega. Etnik tarkibi turlicha bo'lgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonning bu boradagi tajribasi ana shu yo'nalishda muayyan namuna bo'lishi mumkin.

Birinchidan, turli millat va elat vakillaridan tashkil topgan etnik murakkab mamlakatda har bir etnik guruhning o'z milliy madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar, huquqlar yaratilishi kerak. Mamlakatimizda bu yo'nalishda konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy normalar ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Ulardan eng ko'zga ko'rinarlisi turli millat va etnik guruhlarining madaniy-

ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy madaniyatlar rivojini ta'minlash, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan 135 ta milliy madaniy markazlarning tashkil topgani bo'ldi.

Ikkinchidan, etnik jihatdan bunday ko'p tarkibli mamlakatlarda o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillari ta'lim tizimi, ularning o'z ona tillarini o'qitish va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishi va fuqarolar ongiga singdirilishi lozim. Mamlakatimizda bu yo'nalishda ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlar, doimiy harakatdagi seminarlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, mahalliy va markaziy matbuot, radio va televideniye orqali targ'ibot ishlari olib borilmoqda. O'rta Osiyo mamlakatlarida kelib chiqishi bir ildizga borib taqaladigan, dini, tili, madaniyati bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar aralashib yashashadi. Masalan, Tojikiston jami aholisining 24,4 foizini, Qirg'iziston aholisining 13,8 foizini, Turkmaniston aholisining 9 foizini, Qozog'iston aholisining 2,5 foizini o'zbeklar tashkil etsa, O'zbekistondagi jami aholining 4,7 foizini tojiklar, 4 foizini qozoqlar, 0,9 foizini qirg'izlar, 0,7 foizini turkmanlar tashkil qiladi.¹²

Respublikada o'qish tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib boriladigan 1000 dan ortiq maktablar mavjud. Oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligida ana shu tillardagi maktablar uchun mutaxassislar tayyorlaydigan maxsus fakultetlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, barcha millat va elatlarning manfaatlari mamlakatdagi davlat boshqarish mexanizmlari orqali namoyon etilishiga imkon berilishi kerak. Bunda ularning barchasi o'zlarining manfaatlari davlat tizimida mustahkam himoya qilinayotganligini sezishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekistonda bu ishlarga 1992 yil yanvarida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra tashkil etilgan "Respublika baynalmilal madaniyat Markazi" mutasaddi hisoblanadi. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivojida milliy-madaniy markazlarning ahamiyati katta. 1989 yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etilgandi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan, qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi. 2004 yilga kelib milliy-madaniy markazlar soni 130 dan oshdi. Ushbu markazlar umumxalq bayramlarini o'tkazishda faol ishtirok etib kelmoqda. Navruz va Mustaqillik bayramlarining o'tkazilishida mazkur markazlar katta hissa qo'shib kelmoqdalar.¹³

Jamiyat a'zolarining bir-birlariga munosabatlarini, jamiyat kelajagiga ta'sirini, mavjud yoki kelajakdagi ishlab chiqarish va boshqa sohalar rivojiga ta'siri va boshqa ko'plab masalalarni yechishda aholini turli belgilari bo'yicha tasniflashtirish katta ahamiyatga ega. Bunda har bir kishi turli tasniflashda turli guruhlariga kiritilishi mumkin. Masalan, jins bo'yicha kishilar ikki guruhga – erkaklar va ayollarga ajratiladi. Yoshiga ko'ra esa bir necha guruhlar farqlanishi mumkin: bolalar, katta yoshdagilar va qariyalar (bularning har biri yanada kichikroq guruhlariga turkumlashtirilishi

¹² O'z.Res.Stat.Qo'm. 2012-yil yanvar ma'lumotlaridan

¹³ Respublika baynalmilal madaniyat markazi 13.01.1992 10-son Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tashkil etilgan. Bugungi kunda Turizm va san'at vazirligi tarkibiga kiritilgan

mumkin). Yashash joyiga ko'ra – qishloqda yoki shaharda yashovchilar. Ma'lumotiga ko'ra – oliy, o'rta maxsus, o'rta, to'liqsiz o'rta, boshlang'ich ma'lumotlilar. Diniy e'tiqodiga ko'ra – dindorlar va dinga ishonmaydiganlar. Siyosiy e'tiqodiga ko'ra – muayyan bir partiya a'zolari va partiyasizlar. Bu ro'yxatni davom ettirishimiz mumkin. Ammo shundan ham ko'rinib turibdiki, kishilar murakkab hilqat bo'lmish "hazrati insondir", ularni qanchalik o'rgansak shuncha oz. Bu borada oldimizda hali ochilmagan qo'riq turibdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning rivojlanayotgan davlat ekanligini inobatga olgan holda, sotsial tabaqalanish bilan bog'liq qator muammolarimiz hanuz mavjud ekanligini inkor eta olmaymiz. O'zbekistondagi sotsial tabaqalanish muammolari insonlarning turmush sifatida, turmush darajasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu jumladan, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida ham amalga oshirilishi kerak bo'lgan eng muhim masalalardan biri bu aholining turmush sifatini oshirish masalasidir. Albatta, ketkazilgan vaqt, amalga oshirilgan ishlar ijobiy natijasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:

1. Shavkat Mirziyoyev “ Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” kitoblariga kiritilgan. (Toshkent, “O'zbekiston” nashriyoti , 2017 yil, 488 bet)
2. Simona Roberto, S.T.Gaziyeva, O.A.Ovcharenko va boshqalar. Inson va jamiyat kursi bo'yicha qo'shimcha o'quv qo'llanmasi yuzasidan o'qituvchilarga uslubiy ko'rsatmalar.-T.: G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1999.
4. S.Mamashokirov, A.Hukumov, M.Lafasov va boshqalar. Shaxs va jamiyat. Nazariy masalalar amaliy mashg`ulotlar.-T.: “O'qituvchi” 2005.
5. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri' asari “Ziyo” nashri Toshkent-2009
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlar ochiq bazasi
7. www.tdpu.uz
8. www.edu.uz